

O'ZBEK XALQ MUTAFAKKIRLARINING TARBIYA HAQIDAGI PEDAGOGIK G'OYALARI

Bahodirova Shahnoza Rustam qizi

Alfraganus universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi

E-mail: srustamova055@gmail.com

Talipova Feruza Tayirovna

Alfraganus universiteti Psixologiya kafedrası v.b

dotsenti psixologiya fanlari bo'yicha (PhD)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17221588>

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya nima. Hozirgi kunda tarbiyaning qanchalik muhimligi va xalq mutafakkirlarimizning ilmiy nazariy fikrlari, tarbiya haqidagi qarashlarni chuqur ochib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, ziyraklik, ta'lim, halollik, nafs.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ИДЕИ УЗБЕКСКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ О ВОСПИТАНИИ

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность воспитания, его значение в современном обществе, а также научно-теоретические взгляды и идеи наших народных мыслителей о воспитании. Особое внимание уделено их представлениям о роли воспитания в формировании личности.

Ключевые слова: воспитание, сообразительность, образование, честность, страсти.

PEDAGOGICAL IDEAS OF UZBEK THINKERS ABOUT EDUCATION

Annotation. This article explores the concept of upbringing, its significance in modern society, as well as the scientific and theoretical views of our national thinkers on education and upbringing. Special attention is given to their perspectives on the role of upbringing in the formation of personality.

Keywords: upbringing, sharpness, education, honesty, desires.

Kirish

Jamiyatimizda yuz berayotgan o'zgarishlar va yangilanishlar bo'layotgan bir paytda bizning milliy va ma'rifiy boyliklarimiz qatoriga kiruvchi buyuk allomalar, mutafakkirlar va oldingi donishmanlarning bizlarga qoldirgan qoldirgan bebaho merosini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Xalqimizning butun jahonga tanitgan allomalar olimlar va ularning hayot tarzlari va ularning faoliyatlari biz uchun ibrat maktabi hisoblanadi va bular hozirgi davrgacha o'z qiymatini yo'qotgani yo'qdir. Bu ajdodlarimizning me'roslaridagi pedagogik g'oyalar o'rganiladi. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, «Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bu esa bizga ajdodlarimizning hayotlari va ularning fikrlari haqida izlanishimizga yordam bo'ladi.

Al-Xorazmiy hind va yunon olimlarining asariarini puxta o'zlashtirib, undagi g'oyalarni yanada rivojlantiradi. U hozirgi zamon matematika fanining fundamental qoidalari asoschisi,

zamonaviy algebra fanining birinchi ta' sis etuvchisi bo'lib hisoblanadi. U o'zining «Al-Jabr val-Muqobala» asarida olimlar uch guruhga bo'linishini aytadi: «Ulardan biri o'zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qoldiradi. Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan asami tushunishdagi qiyinchiliklarni osonlashtiradi, uni tushunarliroq qiladi. Keyingisi esa sochilib yotganni to'playdi, o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda boladi». AI-Xorazmiyning bu fikrlari o' sha davrdagi ilmiy-tadqiqot ishlari va ta'lim metodlari haqida yorqin ma'lumot beradi.

Farobiy faylasuf va qomusiy olim bo'lib o'tror shahrida tug'ilgan. Farobiy 70 ga yaqin til bilgan va undan ilmning turli sohaloriga bag'ishlangan juda katta ilmiy meros qolgan. Uning "Baxt saodatga erishuv yo'llari haqidagi risola" asarida o'rta asrdagi jamiyatning tuzilishi haqida ta'limot yaratgan. Bu ta'limotda orzu qilgan fozil jamiyat, davlatni boshqarish, ta'limtarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, tinchlik, mehnat kabi mavzular yoritilgan. Fozil jamiyatda komil inson xislatlari vujudga kelishini ta'kidlagan. Allomaning «Baxt-saodatga erishuv» asaridagi pedagogik qarashlaridan turfa misollar keltiramiz:

1. Ziyraklik - bu insondagi tez fikrlilik, o'ylagan narsasini darrov topa olishi qobiliyatidir.
2. Ta'lim faqat so'z va o'rganish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi, o'rganishidir. Agar ular shu kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig'i bo'ladilar.
3. Maqsadni amalga oshirishda qasd va g'ayrat qilish mo'ljallangan ishni bajarishda katta ta'sirga egadir.
4. Inson o'z mulohazasi, ziyrakligini hamisha oshirib borishi kerak, agar aql yomonlikka qaratilsa, bu xislatlar razillik, makkorlik, aldamchilikka olib boradi.
5. Xalq aqlli kishilarni dono deb ataydi. Chunki ular insonlarga kerakli va foydali narsalami o'ylab topadilar.

Ahmad Yassaviy hikmatlarida ko'proq payg'ambar Muhammad alayhissalom ta'limotida ulug'langan ma'naviy – axloqiy sifatlar- saxovat, muruvvat, qanoat, rostgo'ylikka targ'ib qilinib bildirilayotgan fikrlar kishilarning Allohga tobe bo'lishga undaydi. Uning hikmatlarining asosiysi pand nasihatdir. Shuningdek, Inson ruhi va ongini har qanday illat, gabohatdan ozod etish kerak, ana shundagina insonda axloqida ko'zga tashlanuvchi ayrim nuqsonlar yuzaga kelmaydi, degan fikrlar komil insonni shakllantirishning asosiy yo'llaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

Tasavvuf bu nafs lazzatlaridan voz kechish demakdir. Nafs degani esa, ochko'zlik, o'g'rilik, jaholat, xudbinlikni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham qanoat Ahmad Yassaviyning hayotiy shiorlaridan biri sanaladi. Inson hayotda qanoatli, shukronalik hissida va halol va haromni ajratgan holda haq bilan ko'risha oladi, nafsga qul bo'lganlar esa, xudbinlikdan qaytmaydi va nafs balosiga uchraydi.

Demak, Insonning darajasi birinchi bo'lib uning ilmiy darajasi emas , uning tarbiyasida sanaladi. Tarbiya bu insonning libosi bo'lib u orqali hayotini jilovlaydi. Xalqimizda ham ko'plab ishlatiladigan maqollardan bo'lgan olim bo'lma odam bo'l degan naqlari bwjizga aytilmagan. Inson qanncha olim ilmli bo'son unda tarbiyaviy axloqiy bo'lmas ekan hayotda o'z o'rnini topa olmaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 1 may
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni.
3. P. Yusupova. "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi" "O'qituvchi" T.: 1993-yil.
4. Qodirova F., Sh. Toshpo'latova, N. Qayumova, M. A'zamova Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur. 2019.
5. Xalilova N.I. Norqo'ziev D.B. Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligi. Toshkent. 2009-yil.
6. Z.I.Nishanova N.G.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiya. pedagogik psixologiya .
7. Shamshetova Anjim Karamaddinovna. Saipova Maloxat Latipovna. Bolalar psixologiyasi.
8. Sh.A.Dusmuhammedova, N.T. Rasylova. Rivojlanish psixologiyasi va diffrensial psixologiya
9. Sh.A. Do'stmuhammedova, X.A.Tillashayhova , G.Baykunosova, G.Ziyavitdinova Umumiy psixologiya
10. Ijtimoiy pedagogika O'quv qo'llanma; F.Egamberdiyeva, M.Toshov, U.Mamanazarova 2023 "EFFECT-D" nashriyoti,2023